

YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLAR FIZIOLOGIYASI

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salmatligi texnikumi bosh o'qituvchisi

Nazirova Hilola Abdulatif qizi

Annotatsiya (o'zbek tilida)

Mazkur maqolaning ushbu qismida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda modda almashinuvi, immun tizimining xususiyatlari, fiziologik o'tkinchi holatlar hamda keng tarqalgan patologik sindromlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Neonatal davrda erta tashxis va to'g'ri parvarish chaqaloq hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Annotation (English)

This article describes the physiological characteristics and pathological conditions of newborns. During the neonatal period (first 28 days of life), the infant adapts to the external environment, and significant changes occur in the respiratory, circulatory, thermoregulation, and digestive systems. The article also provides information about common neonatal pathologies such as asphyxia, congenital anomalies, hemolytic disease, and infections.

Аннотация (на русском языке)

В данной статье освещаются физиологические особенности и патологические состояния новорожденных. В неонатальном периоде (первые 28 дней жизни) организм ребенка адаптируется к внешней среде, происходят значительные изменения в дыхательной, сердечно-сосудистой системе, терморегуляции и пищеварении. Также представлены сведения о наиболее распространенных патологиях новорожденных: асфиксии, врожденных пороках развития, гемолитической болезни и инфекциях.

Tayanch atamalar: Neonatal davr, adaptatsiya, termoregulyatsiya, Apgar shkalasi, asfiksiya, gemolitik kasallik, giperbilirubinemiya, tug‘ma nuqsonlar, reflekslar, immunitet.

Kirish

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlik davri – bola hayotining eng muhim va mas’uliyatli bosqichlaridan biridir. Bu davr tibbiyotda neonatal davr deb ataladi va tug‘ilgan kundan boshlab 28 kungacha davom etadi. Neonatologiya sohasi rivojlanishida Virginia Apgar tomonidan taklif etilgan Apgar shkalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u chaqaloqning tug‘ilgan zahotiyoq umumiy holatini baholash imkonini beradi.

Yangi tug‘ilgan organizm ona qornidagi muhitdan tashqi muhitga o‘tishi bilan keskin fiziologik o‘zgarishlarga uchraydi. Shu sababli ushbu davrda fiziologik jarayonlarni to‘g‘ri tushunish va patologik holatlarni erta aniqlash katta ahamiyatga ega.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar fiziologiyasi

1. Nafas olish tizimi

Tug‘ilgandan so‘ng chaqaloq birinchi mustaqil nafasini oladi. O‘pkalar ochiladi, alveolalar havo bilan to‘ladi. Homila davridagi o‘pka ichki suyuqligi asta-sekin so‘riladi. Nafas olish soni daqiqasiga 40–60 marta bo‘lishi mumkin.

2. Yurak-qon tomir tizimi

Homila qon aylanish tizimidan mustaqil qon aylanish tizimiga o‘tish sodir bo‘ladi. Arterial yo‘l (Botallov yo‘li) va oval teshik funksional yopiladi. Yurak urish tezligi daqiqasiga 120–140 marta bo‘ladi.

3. Termoregulyatsiya

Chaqaloqlarda tana haroratini bir me’yorda ushlab turish mexanizmi to‘liq rivojlanmagan. Ular tez sovqotadi yoki qizib ketadi. Shuning uchun tug‘ruqxonada optimal harorat rejimi saqlanadi.

4. Ovqat hazm qilish tizimi

Yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun eng muhim oziqa – ona suti. Ona suti immunoglobulinlarga boy bo‘lib, bolaning passiv immunitetini ta’minlaydi. Birinchi najas – mekoniy hisoblanadi.

5. Asab tizimi va reflekslar

Chaqaloqlarda tug‘ma reflekslar mavjud: emish, yutish, qidirish, Moro refleksi va boshqalar. Bu reflekslar markaziy asab tizimining yetuklik darajasini ko‘rsatadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar patologiyasi

Neonatal davrda uchrashi mumkin bo‘lgan asosiy patologik holatlar quyidagilar:

1. Asfiksiya

Tug‘ilish vaqtida kislorod yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi. Og‘ir holatlarda markaziy asab tizimi zararlanishi mumkin.

2. Gemolitik kasallik

Ona va bola qon guruhlari mos kelmaganda (ko‘pincha Rh omili bo‘yicha) rivojlanadi. Bu holat sariqlik va anemiya bilan namoyon bo‘ladi.

3. Fiziologik va patologik sariqlik

Ko‘pchilik chaqaloqlarda hayotining 2–3 kunida fiziologik sariqlik kuzatiladi. Ammo bilirubin miqdori oshib ketganda patologik holat yuzaga keladi.

4. Tug‘ma nuqsonlar

Homila rivojlanishidagi buzilishlar natijasida paydo bo‘ladi. Yurak, asab tizimi yoki boshqa a‘zolar shikastlanishi mumkin.

5. Infekzion kasalliklar

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda immun tizim yetarli darajada shakllanmaganligi sababli infeksiyalarga moyillik yuqori bo‘ladi (sepsis, pnevmoniya va boshqalar).

Neonatal skrining va profilaktika

Ko‘plab davlatlarda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda irsiy va metabolik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida neonatal skrining o‘tkaziladi. Skrining orqali fenilketonuriya, tug‘ma gipoterioz kabi kasalliklar aniqlanishi mumkin.

Chaqaloq holatini baholashda Virginia Apgar tomonidan ishlab chiqilgan Apgar shkalasi keng qo‘llaniladi. U nafas, yurak urishi, mushak tonusi, reflekslar va teri rangiga qarab 0 dan 10 gacha ball qo‘yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyot

1.,Akusherlik “ Ya.N.Allayorov Toshkent -2007.